



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR
AKADEMIYASI



**MUZEYLAR: AN'ANA, NOVATSIYA VA
RENOVATSIYA INTEGRATSIYASIDA**
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami

2024-yil 1-aprel

TOSHKENT 2024

UO‘K: 94:061(093)
KBK: 63.3(5O‘zb)
O‘61

Mas’ul muharrir:

Jannat Ismailova, tarix fanlari doktori, professor
Alisher Ismailov, tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim
Larisa Levteyeva, tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Dilafro‘z Karimova, t.f.b. falsafa doktori (PhD), kat.i.x.
Mansur Safayev, kichik ilmiy xodim

Taqrizchilar:

T.f.d., prof. B.V.Xasanov, t.f.n., kat.i.x.X.Fayziyev

O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi. «Muzeylar: an’ana, novatsiya va
renovatsiya integratsiyasida» nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
to‘plami./**Mas’ul muharrirlar:** J.X.Ismailova, A.F.Ismailov, L.G.Levteyeva;
–Toshkent, 2024-yil 1-aprel. - 445 b.

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil 20-martdagi «2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan xalqaro
va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida»gi 76-son
buyrug‘i bilan tashkil etilgan.

Mazkur to‘plamdan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida an’anaviy tarzda
o‘tkazib kelinayotgan «Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya
integratsiyasida» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida muzeyshunoslik, tarix,
arxeologiya, etnologiya hamda muzeylarda innovatsion texnologiyalarni jalb
etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rin olgan.

To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot
natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi
davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2024-yil 17-apreldagi 3-son majlisi qarori
asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-723-73-8

© O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, 2024.

4. https://www.tripadvisor.ru/Attractions-g293968-Activities-c49-Tashkent_Tashkent_Province.html//Музеи Ташкента.

5. <https://perito.media/posts/kids-european-museums//> Лучшие европейские музеи для детей.

BOLTAYEV B. B.

*t.f.f.d(PhD) Buxoro davlat universiteti
(O'zbekiston)*

MUSTAQILLIK YILLARIDA MUZEYLARNI RIVOJLANTIRISH BORASIDA YANGI ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARNING YARATILISHI

Annotasiya: O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, muzey ishini tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamon talablariga moslashtirish, kommunistik mafkura qobig'idan chiqarish kun tartibidagi dolzarb masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi muzeylarining ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni va vazifalarini belgilab beruvchi qator qonun, farmon va qarorlar muzeylar faoliyatini asosiy mazmun-mohiyatini belgilab berdi.

Kalit so'zlar: Ekskursiya, ekspozitsiya, fond, kolleksiya, kommunikatsiya, rekonstruksiya, virtual muzey, qaror, muzeysunoslik, eksponat, gid.

Аннотация: После обретения Республикой Узбекистан национальной независимости актуальным вопросом на повестке дня стали коренной пересмотр деятельности музея, соответствование его к требованиям быстроменяющегося периода, выведение из сферы коммунистической идеологии. При этом ряд законов, указов и постановлений, который регулировал социально-духовную жизнь и задачи музеев Республики Узбекистан определил деятельность музеев.

Ключевые слова: Экскурсия, экспозиция, фонд, коллекция, коммуникация, реконструкция, виртуальный музей, постановление, музееведение, экспонат, гид.

Abstract: After the Republic of Uzbekistan gained its national independence, the urgent issue on the agenda was the radical revision of museum activity, its compliance with the requirements of the rapidly changing period, its withdrawal from the sphere of communist ideology. At the same time, a number of laws, decrees and resolutions that regulated the social and spiritual life and tasks of museums in the Republic of Uzbekistan defined the activities of museums.

Keywords: excursion, exposition, fund, collection, communication, reconstruction, virtual museum, resolution, museology, exhibit, guide.

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach, muzeylar faoliyatiga yangicha qarash va yondashuv asosida turli tashkilot, muassasalar muzeylarini tashkil etish tendensiyasi yuzaga keldi. Muzeylarning xalqimiz ma'naviyatiga ta'siri xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning «...Bugungi kunda vazirlik tizimida 41 ta muzey va ularning 76 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Ana shu muzeylarda, yordamchi fondlar bilan birga, 1 million 736 mingdan ziyod eksponat mavjud. Bu - juda katta boylik. Lekin bu boylikni asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o'rganish, tashviqot qilish, kelajak avlodlarga yetkazish masalasida, afsuski, qator muammolar bor», - degan fikrlarini O'zbekiston ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvda keltirib o'tgan edi [1]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Respublikamizdagi muassasa,

tashkilot muzeylari tarixi, faoliyati, ulardagi eksponatlar tasnifi borasidagi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga tortish bugungi kun tarix fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayrim olimlarning ta'rifga ko'ra, «Muzey bebaho san'at asarlarini nafaqat to'plash, saralash va jamoatchilik diqqatiga taqdim etish, balki uning asosiy vazifasi kommunikasiya bo'lib hisoblanadi» [2]. Ammo, bugungi kunda bu ta'rif ancha eskirgan bo'lib, nafaqat san'at asarlari va nodir buyumlarga qaratilgan bo'lishi, balki ijtimoiy hayotning turli sohalari haqida ham tarbiyaviy, malakaviy, kasbiy ko'nikmalarni tashrif buyuruvchilar jamoasiga yetkazib berishi lozim. Taniqli muzeyshunos olim T.Yu. Yurenyeva o'z ilmiy izlanishlarida muzey atamasiga ta'rif berib, muzey atamasini jamiyat rivojlanishiga xizmat qilishi kerak degan ma'noda talqin qilgan. Dunyo olimlari fikricha, muzey-ancha murakkab tushuncha, unga tugal, munozarasiz va hammani qanoatlantiradigan izohni topish qiyin. Shunday ekan muzeylar faqatgina ilmiy, madaniy-ma'rifiy yo'nalishda bo'lmasdan, kasbiy, texnikaviy, harbiy va boshqa yo'nalishlarda ham bo'lishi mumkin. Bu XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida dunyo tajribasida ko'plab qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda muzeylarning rivojlanishi yo'lida qilinayotgan ishlar samarasi o'laroq, milliy qadriyatlarni tiklash, mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda chet ellik sayyohlar oqimini jalb qilishda muzey va tarixiy yodgorliklarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Bir so'z bilan aytganda, muzeylar shiddat bilan madaniyat va ma'rifat maskaniga aylanib bormoqda [3].

Ammo, har qanday muzey yoki tashkilot faoliyatining huquqiy asosi yaratilgan bo'lishi kerak. Xususan muzeylar faoliyat turi, ko'rgazmalar turi va yo'nalishi, muzeylarning ma'naviy-mafkuraviy sohaga xizmat qilishi kabi qator masalalarni huquqiy asos belgilab beradi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish borasida qator huquqiy asoslar yaratildi [4]. Jumladan, ilk bora 1992 yil 21 aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 203-sonli «O'zbekiston tarixi muzeyini tashkil etish to'g'risida»gi qarori Respublikada muzey ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida istiqbol yillarida qabul qilingan ilk huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi [5]. Ushbu hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oybek nomidagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi va O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi tizimidagi V.I.Lenin markaziy muzeyining Toshkent filiali tugatilib, ularning negizida 1992 yildan boshlab O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekiston tarixi muzeyi tashkil etildi. Ushbu muzeyning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1993 yil 16 yanvar sanasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 35-sonli «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi O'zbekiston tarixi muzeyi ekspozitsiyasini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi [6]. Ushbu qaror O'zbekistonda qadimdan istiqomat qilib kelayotgan xalqlarning urf-odati, madaniyati hamda amaliy-bezak san'atining rang-barangligini keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Navbatdagi muzey sohasidagi huquqiy-me'yoriy hujjat 1994 yil 5 avgust sanasida qabul qilindi. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 402-sonli «O'zbekiston tarixi Davlat

muzeyini tashkil etish to'g'risida» qarori edi. Qaror mazmuni Fanlar Akademiyasining O'zbekiston tarixi muzeyiga Davlat muzeyi maqomini berish, O'zbekistonning ko'p asrlik tarixini xolisona va har tomonlama aks ettirish, xalqimizning jahon madaniyati merosiga qo'shgan munosib hissasini ochib berish, o'sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash kabi vazifalarni o'z ichiga qamrab olgan edi [7]. O'zbekistonda muzey ishini tubdan o'zgartishga zamin yaratgan va rivojlanishiga samarali turtki bo'lgan huquqiy asoslardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekabr sanasida qabul qilingan «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 618-sonli qarori hisoblanadi. Mazkur qarorda xalqimiz tarixini to'liq aks ettiruvchi noyob ashyolarni to'plash va foydalanish, ularni asl holida asrab-avaylash, ta'mirlash, Respublikada tashkil etilgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, muzey tizimiga jahon muzeyshunosligi tajribasini olib kirishga katta e'tibor qaratilgan edi. Qaror ijrosini ta'minlash jarayonida Respublikaning barcha hududlaridagi muzeylar qayta rekonstruksiya qilindi, mamlakat muzeylari fondlarida saqlanayotgan va saqlanishi lozim bo'lgan noyob eksponatlar qayta ro'yxatdan o'tkazildi va yangi muzeylar tashkil etildi. 1995 yil 26 iyun sanasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 236-sonli «Respublika muzeylari faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori natijasida mavjud muzeylar faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirildi[8]. Respublikamizning markaziy va viloyat muzeylari o'z faoliyatini ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirib rivojlantirib kelmoqdalar.

O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularni xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimiz boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jahon muzeyshunosligi tajribasidan keng foydalanish uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [9], shuningdek, bu farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi[10]. Yuqorida keltirilgan farmon va qarorlar muzeylar faoliyatini taqomillishtirishga xizmat qildi.

Ammo, yangi huquqiy asoslar yaratishni davrning o'zi kun tartibiga qo'ydi. 2008 yil 26 iyun sanasida Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va shu yilning 28 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining «Muzeylar to'g'risida» Qonuni O'zbekistonda mavjud muzeylarni boshqarish, Milliy muzey fondi, Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi, Milliy muzey fondining davlatga tegishli bo'lmagan qismi, yangi muzeylarni tashkil etish, Milliy muzey fondining ochiqqligini ta'minlash va Muzeylar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalarini qonun bilan belgilab qo'ydi. Ushbu qonun 8 bob 36 moddadan iborat [11]. Muzeylar bugungi kunga qadar o'z faoliyatini ushbu qonun

asosida olib bormoqda.

2010 yil 12 aprel sanasiga kelib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining «Muzeylar to'g'risida»gi qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi qarori natijasida quyidagi bir qator nizomlar tasdiqlandi:

Davlat muzeylarining toifalari to'g'risidagi; Milliy muzey fondining Davlat katalogi to'g'risidagi; Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish tartibi to'g'risidagi; Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini boshqarish tartibi to'g'risidagi; Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi; Muzey mutaxassislarini tayyorlash, muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risidagi; Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish tartibi va shartlari to'g'risidagi kabi Nizomlar asosida muzey ishi va faoliyati tashkil etib kelinmoqda.

Aynan shu sohadagi amaliy ishlarning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11 iyuldagi 189-sonli «Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqqligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, barcha davlat muzeylariga 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va ularga hamrohlik qiluvchi ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) haftaning har seshanba va juma kunlari davlat muzeylariga bepul kirishlariga ruxsat etildi. Davlat muzeyiga 18 yoshga to'lmagan bolalar va aholining bepul kirishi hisobini yuritish maxsus jurnal asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi[12]. Ushbu qabul qilingan qaror yoshlarni, oddiy xalqni muzeyga bo'lgan qiziqishining ortishiga xizmat qildi.

Respublikamizda muzey va muzeyshunoslik sohasining rivojlanishiga zamin yaratgan yana bir hujjat - bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda 975-sonli «2017 - 2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida» qarori hisoblanadi. Bu qaror 2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirishga, muzeylarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, muzeylar faoliyatini keng ommaga yoyishga qaratilgan. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash uchun quyidagi bir qator vazifalar belgilab berilganligini ko'rish mumkin:

- «Virtual muzey» ma'lumotlar bazasini O'zbekiston Milliy kutubxonasi, viloyatlarning axborot-kutubxona markazlari, yirik sayyohlik kompaniyalarining Internet sahifalariga joylashtirishni amalga oshirish.

- Muzey ashyolarini o'z holicha saqlash uchun, ular joylashgan xonada harorat, namlik va yorug'lik ta'sirini muntazam nazorat qilib boradigan jihozlar bilan ta'minlash.

- Muzeylarda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida videokuzatuv moslamalari, signalizasiya tizimlarini yangilash va o'rnatish, muzeylarni bosqichma-bosqich hududiy jihatdan markaziy qo'riqlash tizimiga ulash.

- Yangi quriladigan, rekonstruksiya yoki mukammal ta'mirlanadigan davlat muzeylari binolarini yangi konsepsiyalarini ishlab chiqish, tashrif buyuruvchilar,

xususan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, muzeyning yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratish belgilab o'tildi[13]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovasion rivojlantirish to'g'risida»gi, 2018 yil 26 avgustdagi PQ-3920-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslar, maktab yoshidagi bolalar, keksa tashrif buyuruvchilar va ularga hamrohlik qiladigan shaxslarning muzeylarga tashrif buyurishlari uchun inklyuziv shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2020-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi muzeylarining inklyuzivligi dasturini tasdiqlash to'g'risida» hamda «2020-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida» qarorlari qabul qilindi[14]. Qaror ijrosini ta'minlash borasida qilingan ishlar natijasi sifatida muzeylar va ularga tutash hududlar infratuzilmasi takomillashtirildi, inklyuziv xizmat ko'rsatish amaliyotini joriy qilindi, inklyuzivlikni hisobga olgan holda muzey xodimlarini tayyorlash tizimi takomillashtirildi, inklyuzivlik hisobga olingan holda muzeylarning texnik aktivlari yangilandi hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun muzeylarning ma'muriy tuzilmasini takomillashtirish, kolleksiyalarni boshqarish, eksponatlarni saqlash va konservasiya qilish tizimi takomillashtirildi. Qolaversa, ushbu qarorlar muzeylar huzurida akademik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim asos bo'ldi[15].

Dahaqiqat, tahlil qilingan qonun, qaror va huquqiy hujjatlar jamiyat hayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvida, ilm-fan, madaniyat rivojida, shuningdek, xalq ta'limida muzeylarning o'rnini tabora ortishiga xizmat qildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 27 may sanasidagi PQ-261-sonli «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori e'tiborga molik [16]. Ushbu qaror mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovasion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirib o'tilgan qonun, farmon, qarorlar asosida mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida muzeylar ishi va uni tashkil etishning chora tadbirlari belgilab berildi. Sobiq ittifoq davrida qabul qilingan nizom va qarorlar o'tgan asrning 60-70 yillari uchun xos bo'lib, ular bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamon talablariga javob bera olmas edi. Shu boisdan mustaqillik yillarida eng avvalo komil insonni tarbiyalash, vatanparvarlik, yoshlarni milliy istiqlool ruhida kamol toptirish, vatanga muhabbat, boy tarixdan faxrlanish, ajdodlarga munosib farzand bo'lib yetishish kabi g'oyalarni targ'ib etishning huquqiy asoslari yaratib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. – Б. 199.

- 2.Портер Д. Роль музея как средства коммуникации // Museum. 1983. № 138. – С.34.
- 3.Юренева Т.Ю. Музей в мировой культуре. – Москва: Русское слово-РС, 2003. – С. 37.
4. Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991-2000 гг). Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент-2009. - 63 с.,
- 5.<https://lex.uz/docs/424562>
- 6.<https://lex.uz/docs/579086>
- 7.Boltayev A.H. XX asrning 20-80 yillari Buxoroda tarixiy o'lkashunoslikning shakillanishi va rivojlanishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent-2021. – B. 62.
- 8.Ўзбекистон Республикасининг Президенти И. Каримовнинг 1998 йил 12 январь санасидаги ПФ-1913-сонли «Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармони.
- 9.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5 март санасидаги 98-сонли «Музейлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш масалалари тўғрисида»ги Қарори.
- 10.2008 йил 12 сентябрь санасидаги ЎРҚ-177-сонли «Музейлар тўғрисида»ги Қонун.
- 11.<https://lex.uz/docs/2429191>
- 12.<https://lex.uz/docs/3451889>
- 13.Балтаев Б.Б. Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистане // Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах – важнейшие факторы стабильного развития стран евразии сборник научных трудов в двух частях.-Омск: Издательский дом «Наука»,2021. -С.54-61.
14. <http://lex.uz/docs/3882752>
- 15.Boltayev B.B. Buxoro davlat universiteti muzey laboratoriyasining tashkil topishi va rivojlanish tendensiyasi / International journal of philosophical studies and social sciences. Volume 2, Issue 3 2022. -P.69-73.
16. <https://lex.uz/docs/6040013> .

ХУДОЖНИКА (о творчестве художника Б.Серекеева)	100
БЕГАЛИЕВ Н. БУХОРО – ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР МАДАНИЙ МЕРОС СИФАТИДА.....	106
БАБАДЖАНОВ Д. К. ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА «ИЧАН-КАЛА».....	109
УСМАНОВА М. Р. ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ БУДДИЙСКОГО ХРАМА СВЯТИЛИЩЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ ГОРОДА КУБЫ.....	119
NURULLAYEVA Z. R. O‘ZBEKISTON MUZEYLARIDA SAQLANAYOTGAN MILLIY BOSH KIYIMLARNING TURLARI VA TARIXIY-MADANIY QIYMATI	123
ДЎСМАТОВА Ш. ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ҚИПЧОКЛАРИ ХЎЖАЛИК МАШГУЛОТИНИНГ ЭТНОЛОКАЛ ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	126
АБДУРАХМАНОВА Г.З. АКССЕСУАРЫ МУЖСКОЙ ОДЕЖДЫ	130
YO‘LDASHEVA M. R. ALLOMALARGA BAG‘ISHLANGAN MUZEY ...	134
НАСРИТДИНОВА М. Б. УЧЁНЫЕ ИСТОРИКИ ИЗ ТАШКЕНТА	139
 IKKINCHI SHO‘BA: ZAMONAVIY MUZEYLAR FAOLIYATIDA INNOVASION YONDASHUVLAR: NAZARIYA VA AMALIYOT	
ИСМАИЛОВА Ж. Х. МУЗЕИ МИРА В XXI ВЕКЕ.....	145
БЫСТРОВА Т. Ю. НОВАЯ МУЗЕОЛОГИЯ: ОРИЕНТИРЫ, ТЕХНОЛОГИИ, СЛОЖНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ	151
ДОСПАНОВО.Т., СКЕНДЕРОВ П.М.156 СЕРЖАНОВАМ.Б., КУТЫБАЕВАК.М. ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РЕШЕНИЮ ВОПРОСОВ МУЗЕЕВЕДЕНИЯ (на примере работы отдела археологии ККГМИ РК им.И.В.Савицкого).....	156
ПУЛАТОВА С. А. МУЗЕИ В XXI ВЕКЕ: НОВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	160
BOLTAYEV B. B. MUSTAQILLIK YILLARIDA MUZEYLARNI RIVOJLANTIRISH BORASIDA YANGI ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARNING YARATILISHI	166
DJURAKULOV J. A. I.A.AKRAMOVNING «SAMARQAND» DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI	172
ИЛМУРОВОДА Ф. Ш. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ МУЗЕЙЛАРНИНГ РОЛИ	175
ИЛЬХАМОВА И. ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МУЗЕЕВ МЕДИЦИНЫ В ЕВРОПЕ	180
TURSUNOV N. N., YORMATOV F. J., ABDURAXMONOVA. O. ZAMONAVIY MUZEYSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI ...	184
SA‘DULLAYEVA M., ISLAMOVA Q. MUZEYLARDA TURIZM	

**MUZEYLAR: AN'ANA, NOVATSIYA VA
RENOVATSIYA INTEGRATSIYASIDA**
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami

2024-yil 1-aprel

Muharrir M.Talipova
Tex. muharrir N.Niyazova
Sahifalovchi B.Haydarov

Bosishga ruxsat etildi 28.05.2024.
Qog'oz bichimi 60x841/16. TIMES garniturası,
Shartli bosma tabog'i 24,5. Nashr tabog'i 20,9
Adadi 100. Buyurtma №28-05/101

«Lesson press» OK nashriyoti
100147, Toshkent sh., Huvaydo ko'chasi, 2A-25

«Dimal» OK matbaa bo'limida chop etildi.